2026-yil
8-son

FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 376.2:37.091.3

Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi, dotsent

INKLYUZIV SINFLARDA ALOHIDA EHTIYOJGA EGA O‘QUVCHILARDA AMALIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan hamda inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda amaliy faoliyatni tashkil etishning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, unda differensial va individual yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalarlarning alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari, amaliy ko‘nikmalar, hayotiy kompetensiyalar, individual yondashuv, differensial ta’lim, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy moslashuv, inklyuziv sinf, ta’lim samaradorligi, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim jarayoni.

ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В ИНКЛЮЗИВНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические возможности формирования практических навыков у учащихся с особыми образовательными потребностями в условиях инклюзивного образования, а также освещаются эффективные методы организации практической деятельности в инклюзивных классах с учетом индивидуальных возможностей, потребностей и способностей учащихся. Также раскрывается значение дифференцированного и индивидуального подхода, современных педагогических технологий в развитии практических навыков у учащихся с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, особые образовательные потребности, практические навыки, жизненные компетенции, индивидуальный подход, дифференцированное образование, интерактивные методы, педагогические технологии, социальная адаптация, инклюзивный класс, эффективность образования, компетентностный подход, образовательный процесс.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING PRACTICAL SKILLS IN STUDENTS WITH SPECIAL NEEDS IN INCLUSIVE CLASSES

Abstract. This article analyzes the pedagogical possibilities of forming practical skills in students with special educational needs within inclusive education, and highlights effective methods for organizing practical activities in inclusive classes, taking into account the individual capabilities, needs, and abilities of students. It also reveals the importance of a differentiated and individual approach and modern pedagogical technologies in developing practical skills in students with special educational needs.

Keywords: Inclusive education, special educational needs, practical skills, life competencies, individual approach, differentiated education, interactive methods, pedagogical technologies, social adaptation, inclusive classroom, educational efficiency, competency-based approach, educational process.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, barcha bolalarning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash hamda ularning jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ko‘maklashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'limni rivojlantirish va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarni umumta'lim muassasalariga jalb etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim nafaqat o‘quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularning ijtimoiylashuvi, mustaqil hayotga tayyorlanishi va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ham qulay sharoit yaratadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularda kundalik hayotda, o‘quv faoliyatida va kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasiga bog‘liqdir. Amaliy ko‘nikmalar o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni hal etishi, jamoada ishlashi, muloqotga kirishishi hamda o‘z imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, inklyuziv sinflarda tashkil etiladigan ta'lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, loyiha faoliyati, hamkorlikda o‘qitish va differensial yondashuvlar alohida ehtiyojga ega o‘quvchilarning faolligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim jarayonidagi mustaqilligini oshirish va ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtirishga yordam beradi. Bunda o‘qituvchining individual yondashuvi, topshiriqlarni o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirishi va zarur pedagogik yordamni ko‘rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarga olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llash imkonini beradi.

Shu sababli inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali usullarini aniqlash, pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish va ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatimizda ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ehtiyojga ega bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ular uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida"gi Qonuniga muvofiq inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilganligi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilishi belgilangan [1]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"gi Qonuniga ko‘ra nogironligi bo‘lgan shaxslarning inklyuziv ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash mazkur toifadagi shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalq ta'limi tizimiga oid qonunchilikda, institutsional rivojlanishda, maktab yoshidagi bolalarga zamon talablariga mos ravishda ta'lim-tarbiya berishda ayrim bo‘shliq va kamchiliklar mavjudligi, jumladan xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim dasturlari yetarli darajada rivojlanmaganligi, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari dasturlarida o‘qituvchilarning inklyuziv ta'lim bo‘yicha maxsus tayyorgarligini ta'minlash lozimligi qayd etilgan [3]. Shundan kelib chiqib, konsepsiyada imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar, shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlashjamoatchilik o‘rtasida imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish kabi dolzarb vazivalar belgilandi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-4860-son qarori [4] ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Umumiy o‘rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom, inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi, o‘quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi, inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tartibi hamda me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi [5]. Mazkur hujjatlar va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslarining o'quv reja va dasturlariga "Ta'limda inklyuziya va ehtiyojlarga asoslangan differensial yondashuv" moduli bo'yicha o'quv mashg'ulotlari kiritildi [6]. Natijada ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil etish va amalga oshirishga doir mustahkam normativ-huquqiy baza shakllantirildi.

Biroq inklyuziv sinflarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, samarali metod va vositalarini aniqlash hamda ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish masalalari hali ham ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Inklyuziv ta'lim va alohida ehtiyojga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash masalalari so'nggi yillarda pedagogika fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda inklyuziv ta'lim barcha bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash va ularning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirish vositasi sifatida talqin etiladi [8]. Ushbu yondashuvda o'quvchilarning amaliy va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim muhitida amaliy faoliyatga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish bilan bir qatorda ularning ijtimoiy va hayotiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga, ularda o'ziga ishonch hissini shakllantirishga hamda mustaqil hayotga tayyorlashga yordam beradi.

Inklyuziv ta'lim nazariyasining rivojlanishida Mel Aynskou va Toni But kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Ular inklyuziv ta'limni o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kengaytirish va ta'limdagi to'siqlarni bartaraf etish jarayoni sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, amaliy faoliyatga asoslangan ta'lim usullari alohida ehtiyojga ega o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga hamda kundalik hayotda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi [9].

Kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda amaliy ko'nikmalar ta'lim natijadorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi ham zarur. Shu sababli loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, o'yin texnologiyalari kabi ta'lim texnologiyalari va STEAM yondashuvi amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali vositalari sifatida tavsiya etiladi.

Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida ham inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojga ega o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va differensial yondashuvni qo'llash masalalari yoritilgan [7]. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, inklyuziv

sinflarda bu o‘quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish va ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish ularning mustaqilligi hamda ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi.

Natija va muhokama. Ma’lumki, inklyuziv ta’lim muhitida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, muloqot qilish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan bog‘lash o‘quvchilarning o‘quv materialini yaxshiroq tushunishi va uni kundalik hayotda qo‘llashiga imkon yaratadi.

Kuzatuvlar davomida aniqlanishicha, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, rolli o‘yinlar, modellashtirish va hamkorlikdagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanilgan darslarda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning faolligi ortadi. Bunday faoliyatlar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni real yoki hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitlarda qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, topshiriqlarni mustaqil yoki kichik guruhlarda bajarish ularda mas’uliyat, tashabbuskorlik va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, differensial va individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali natija beradi. O‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘zlashtirish sur’atini hisobga olgan holda topshiriqlarni moslashtirish ularning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi. Bunda murakkab topshiriqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish, zarur hollarda ko‘rsatma va qo‘shimcha yordam berish hamda o‘quvchining mustaqil bajarish imkoniyatini asta-sekin kengaytirish muhimdir.

Ayniqsa, ko‘rgazmali vositalar, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning amaliy faoliyatga qiziqishini oshiradi. Video, animatsiya, interaktiv topshiriqlar, ta’limiy o‘yinlar va raqamli resurslar murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Bunday vositalardan foydalanishda o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish va texnologiyani maqsadga muvofiq tanlash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish faqat fan doirasidagi topshiriqlar bilan cheklanmasligi kerak. Kundalik hayotga oid vaziyatlarni modellashtirish, muloqot qilish, o‘z fikrini ifodalash, oddiy muammolarni mustaqil hal etish, o‘z faoliyatini rejalashtirish kabi mashqlar ham o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning nafaqat ta’lim jarayonida, balki ijtimoiy muhitda ham faolroq ishtirok etishiga yordam beradi.

Umuman olganda, inklyuziv sinflarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligi pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri tanlanishi, qulay va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitining yaratilishi hamda o‘qituvchining kasbiy mahorati

bilan bevosita bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchining imkoniyatlarini to‘g‘ri baholab, unga mos metod va topshiriqlarni tanlagan taqdirda amaliy faoliyatning ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa. Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

inklyuziv sinflarda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim metodlaridan foydalanish alohida ehtiyojga ega o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi;

loyiha ishlari, amaliy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va hamkorlikdagi ta’lim metodlari o‘quvchilarning faolligi hamda mustaqilligini oshiradi;

differensial va individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos sharoit yaratib, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi;

raqamli ta’lim resurslari va interaktiv vositalardan foydalanish amaliy topshiriqlarni bajarish samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, alohida ehtiyojga ega o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishlari, ijtimoiy hayotga moslashishlari hamda mustaqil faoliyat yuritishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Inklyuziv sinflarda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari, jumladan loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, interaktiv mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari alohida ehtiyojga ega o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot qilish madaniyati, jamoada ishlash qobiliyati va kundalik hayotda zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, individual va differensial yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish orqali ularning ta’limdagi faolligini oshirishga yordam beradi.

Demak, inklyuziv sinflarda alohida ehtiyojga ega o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratish, ta’lim jarayonini faoliyatga yo‘naltirish va zamonaviy metodlardan foydalanish ularning ijtimoiy moslashuvi hamda mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son (https://lex.uz/docs/-5013007).

2. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 15-oktabr, O‘RQ-641-son (https://lex.uz/docs/-5049511).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

Farmoni. Toshkent sh., 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son (https://lex.uz/ru/docs/-4312785).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“**Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Toshkent sh., 2020-yil 13-oktabr, PQ-4860-son. (https://lex.uz/ru/docs/-5044711).

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2021-yil 12-oktabr, 638-son. (https://lex.uz/docs/-5679836).

6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “2026-yil uchun maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslarining o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i. – Toshkent, 2026-yil 16-mart, 101-son.

7. U.U.Turamuratov, Z.M.Qurbonova, A.E.Oltiboyev, S.E.Zaripova, O.K.Mamatmurotov. Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Termiz: “ILM-21” nashriyoti, 2024-yil. – 173 bet.

8. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris: UNESCO Publishing, 2005.

9. Tony Booth and Mel Ainscow. Index for inclusion developing learning and participation in schools. CSIE, 2002.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694